

Sh.S. Alimov

ADCHTI professori

Boburjon Solijonov

ADCHTI o'qituvchisi

INGLIZ TILI FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL QILISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi mustaqil ish va mustaqil ta'limni tashkil qilishiga oid masalalarga bog'langan bo'lib, unda mustaqil ta'limni samarasini tashkil qilishga bevosita ta'sir qiluvchi lingvopsixologik omillar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, mustaqil ta'lim, individual xususiyatlar, lingvopsixologik omillar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli texnologiya, kognativ faoliyat.

So'nggi yillarda barcha fanlarda mustaqil ishlarni tashkil qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki o'quv rejalarida talabalarning mustaqil o'qib o'rganishiga ajratilgan soatlar o'quv faniga ajratilgan soatlarning 40-45% ni tashkil qilmoqda. Bu esa fan o'qituvchilaridan mustaqil ishlarni tashkil qilishda shunchaki talabalarga ma'lum topshiriqlar berib qo'yish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mustaqil ish samaradorligini oshiruvchi omillarni topish va yakuniy natijada oldinga qo'yilgan maqsadga erishishni ko'zlagan xolda ishni tashkil qilish lozimligini talab qiladi.

Shuning uchun ham mustaqil ishni tahskil qilishga ma'suliyat bilan yondoshgan xolda unga nisbatan talabalarda motivatsiya xosil qilish kerak bo'ladi. Agar talabalar u yoki bu fandan mustaqil ishni o'z istak-xohishlari asosida qiziqish bilan bajarishsa natija albatta yaxshi bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi avval talabalarga mustaqil ishdan ko'zlangan maqsadni aniq tushuntirib berish, o'quv materiallari bilan ishlash yo'llarini ko'rsatishi lozim, talaba mustaqil ish uchun berilgan topshiriqni bajarish yo'llarini bilsa, unda mustaqil ishga nisbatan qiziqish xosil bo'ladi, shuningdek mustaqil topshiriqni qanday bajarish yo'llari talabaga ma'lum bo'lsa, u bu ishni ikkilanmay, qo'rqmasdan bajaradi.

Demak, mustaqil ish uchun berilgan topshiriqdan ko'zlangan maqsad, uni bajarish yo'llari talabaga tushuntirib berilishi va qanday tartibda bajarish kerakligini ko'rsatib berish maqsada muvofiq.

Yana bir muhim narsa, bu ko'proq yosh o'qituvchilarga taalluqli. O'qituvchi mustaqil ishga berilgan topshiriqni avval o'zi bajarib ko'rmog'i lozim. Bu oqituvchiga talabalar uchun kelib chiqishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan aniqlab olish va oldini olishga yordam beradi.

Ma'lumki, mustaqil ta'limga auditoriyada olib boriladigan o'quv jarayonidan tashqarida kechadigan o'quv jarayoni sifatida qaralganda u talab tomonidan individual xolda, mustaqil o'rganiladigan bilim hamda xosil qilinadigan nutqiy ko'nikma va malakalar majmuasini tashkil qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'quv jarayonidagi xolat faqat o'qituvchigagina bog'liq emas. Bu ko'p jihatdan o'qituvchi-talaba munosabatiga va talabadagi o'qib o'rganishga nisbatan bo'lgan motivatsiyaga bog'liq. Bu esa ko'proq talabaning individual xususiyatlari va boshqa turli ekstralingvistik omillar (qobiliyati, qiziqishi, o'quv sharoiti, kerakli o'quv qurollarining

mabjudligi yoki talabga javob bera olish, o'qishdan boshqa ishlar bilan bandligi, oilaviy sharoiti, sog'lig'i kabi ko'plab omillar) talabning o'zlashtirishiga va berilgan topshiriqni bajara olishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda o'quv jarayonini individuallashtirish yoki shaxsga yo'naltirilgan xolda tashkil qilishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buni ayniqsa, mustaqil ishlarni tashkil qilishda e'tiborga olish ushbu toifadagi ishlar samaradorligini oshirish omillaridan biridir.

Xozirgi paytda institutda dars berayotgan o'qituvchilarni uch toifaga bo'lish mumkin.

Birinchi ma'ruzachi o'qituvchi. U asosan nazariy fanlardan ma'ruzalar o'qiydi va seminar mashg'ulotlarini olib boradi, turli ilmiy anjumanlarda faol qatnashadi. Demak, uning asosiy vazifasi o'z sohasi bo'yicha bilimlarini talabaga berishdan iborat bo'lib, bu ma'ruza jarayonida amalga oshiriladi. Ma'ruzachi asosan, mavzu yuzasidan turli faktlarni keltirish va bilimlarni sistemali bayon qilishga e'tibor qaratgani xolda talabar xolati, ularning ma'ruzaga tayyor yoki tayyor emasligi bilan ko'p ham qiziqmaydi. Shunkng uchun ham hozirgi paytda ma'ruza jarayoniga psixologik nuqtai nazardan yondashish avval talabalarda shu ma'ruza mavzusiga nisbatan motivatsiyaga xolis qilib olishi talab etiladi.

Agar talabalarda ma'ruzaga qiziqish bo'lmasa ular daesga nisbatan befarq bo'ladilar va shunchaki dars qoldirmaslik uchungina ma'ruzada ishtirok etadilar.

Shu borada mustaqil ish bilan mustaqil ta'limni farqlab o'tish maqsadga muvofiq. Bizning mustaqil ish talabning o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarish jarayonidagi mustaqil faoliyati, mustaqil ta'lim esa talabning auditoriyadan tashqari paytda o'z istak xohishi, qiziqishlari, extiyojidan kelib bilimni oshirish maqsadidagi o'qib o'rganish faoliyati deb qarash to'g'ri bo'ladi. Xar ikki holda xam talabning individual xususiyatlari (bilimini oshirishga bo'lgan istak-xohish, qiziqish) mustaqil ish mustaqil ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi.

Chet tillarni o'rganishni istagan xar bir shaxs (o'quvchi, talaba yoki turli kasb egalari) o'zining yoshidan qat'iy nazar shu o'rganayotgan chet tilde o'qib, yozish, muloqot qila olishni xohlaydiva shunga xarakat qiladi. Ammo ularning istak-xohishlari bilan bilim darajasi, qobiliyatlari, extiyojlaridagi farqlovchi sabablar til o'rganish faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu boradagieng muhim omil til o'rganuvchining chet tilini o'rganishdagi maqsadi xisoblanadi. Maqsadlar esa turlicha. Masalan, nofilologik fakultetlar talabalaridan ayrimlari chet tilini o'quv dasturida borligi va uni o'rganish shartligi uchungina o'rgandi. Boshqa birlari esa chet tilini o'zlarining kelajakdagi faoliyatlari bilan bog'lay oladilar. Bu esa ularga chet tilini chuqurroq o'rganish imkonini berish bilan birga ularda kasbga yo'naltirilgan kompetensiyalarini shakllantirish uchun kuchli motivatsiyani xosil bo'lishiga ham sabab bo'ladi.

Chet til o'rganishdagi mustaqil ta'limni samarasini tashkil qilish bir necha omillarga asoslanadi. Bularga chet tilini o'rganishdan ko'zlangan maqsad: istak-xohish, nutqiy muloqotga nisbatan extiyoj. Bu omillar chet til o'qitish mazmuni, shakllari, metod va usullari hamda vositalarini aniqlashga yordam beradi. Mustaqil ta'limni tashkil qilishda til o'rganuvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'limga ajratilgan vaqtning ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Kingadir chet tili o'rgatish maqsadidan kelib chiqib, saralab olingan o'quv materiallarini o'rganish uchun 30 soat yetarlicha bo'lsa boshqa biron uchun 35-40 soat bo'lishi ham mumkin. Mustaqil ta'limni tashkil qilish ko'p jihatdan chet til o'rganuvchiga yo'naltirilgan (learne oriented) ta'lim orqali amalga oshirilganda uning samaradorligi oshadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyani rivojlanib, turli sohalarda amaliyotga tadbiiq etilayotganligi, chet tillarni o'qitish sohasiga ham ta'luqli. Ta'limda raqamli texnologiyalardan

foydalanishning juda kata istiqbollari mavjud. Xususan, chet tillarini o'qitish bilan bog'liq mustaqil ta'limni tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish til o'rganuvchilar faoliyatining ichki zaxira imkoniyatlaridan foydalanish uchun ham sharoit yaratadi. Internet materiallari, vizual va adivizual materiallari, video podkastlar kabi autentik materiallardan foydalanish talabalarni bilim olish jarayonidagi ichki faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda chet tillarni o'rgatish va o'rganish jarayonida va darsdan tashqari paytlardagi mustaqil ish va mustaqil ta'limni o'qish maqsadlaridan va lingvopsixologik, lingvodidantik ham lingvometodik omillarini xisobga olib tashkil qilinishi nafaqat talabalarda ichki motivaniyaning xosil bo'lishiga balki til o'rganishiga nisbatan ongli munosabatni ham shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu esa til o'rganuvchining kelgusidagi mustaqil ish faoliyatida chet tildan amaliyotda foydalana olishning keng imkoniyatlarini yaratadi.

O'qituvchi talabaga u qiziqqan mavzuga oid o'quv adabiyotlarini taklif qilish bilan birga bu adabiyotlar bilan qanday ishlash yo'llari yuzasidan ko'rsatmalar berishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J Mahkamova G.T, Ashurov Sh.S. English language teaching methodology. – Tashkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Alimov Sh.S. o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati xususida ayrim fikr mulohazalar.
3. Xorijiy tillarni yangi innovatsion pedogogik texnologiyalar asosida o'qitish muammolari.
4. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon-2015, 41-45.